

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) ILMIY  
DARAJASINI BERUVCHI DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XIDIROV TEMUR QAHRAMON O‘G‘LI**

**SUTNI QAYTA ISHLASH SANOATI KORXONALARINI  
KLASTER TIZIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Xidirov Temur Qahramon o‘g‘li**

Sutni qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish..... 3

**Хидиров Темур Кахрамон угли**

Развитие промышленных предприятий по переработке молока на основе кластерной системы..... 25

**Khidirov Temur Kakhramon ugli**

Development of dairy processing industrial enterprises based on the cluster system ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) ILMIY  
DARAJASINI BERUVCHI DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XIDIROV TEMUR QAHRAMON O‘G‘LI**

**SUTNI QAYTA ISHLASH SANOATI KORXONALARINI  
KLASTER TIZIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2107 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xotamov Ibodullo Sadulloevich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Karriyeva Yakutdjan Karimovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdullayev Axror Jaxbarovich**  
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSs) ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_» \_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (0 371) 239-41-23; e-mail: [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_ raqamli bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (0 371) 239- 41-23; e-mail: [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**K.A. Sharipov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**M.K. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,  
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**A.U. Burxanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda aholi turmush darajasi sifatini oshirish, ratsional iste'mol tarkibini rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda ishlab chiqarishni klaster tizimiga ko'ra rivojlantirish muhim vosita (mexanizm) hisoblanadi. Jahon Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti(FAO)ning ma'lumotiga ko'ra «FAO oziq-ovqat narxlari indeksi 2021-yilda oxirgi 10 yillikdagi eng yuqori darajaga yetgan»<sup>1</sup>. Bugungi kunda dunyo miqyosida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga talabi tobora ortib borishi sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini klaster tizimi asosida qayta ishlash va mahsulot hajmini oshirishning yangi imkoniyatlarini yanada takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Jahonda klaster tizimi sharoitida sutni qayta ishlash sanoatining metodologik-uslubiy asoslarini innovatsion va raqamli texnologiyalar hamda turli iqtisodiy sharoitlarda uyg'un va optimal rivojlantirishga ko'ra takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda. Bu borada qishloq xo'jaligi sohasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash hajmini innovatsion texnologiyalar asosida yanada kengaytirish, iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik muhitga ko'ra ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash, qayta ishlash sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlaridagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda qayta ishlash sanoati, jumladan sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish borasida ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, kadrlarning munosib malakasini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanishning tashkiliy-ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'nalishlarida islohotlar amalga oshirilmoqda. «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish»<sup>2</sup> vazifalari belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirishning innovatsion asoslarini takomillashtirish, sutni qayta ishlash korxonalarida klaster tizimidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish singari yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada keng miqyosda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2021-yil 3-fevraldagi PF-6159-son «Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida»gi, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan

<sup>1</sup> <https://www.fao.org/worldfoodsituation/foodpricesindex/ru>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni. 2022-yil 28-yanvar. -www.lex.uz

strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonlari, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2021-yil 3-martdagi PQ-5017-son «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2020-yil 15-dekabrda PQ-4922-son «O‘zbekiston Respublikasining BMT oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti, BMT qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi hamda BMT butunjahon oziq-ovqat dasturi bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash sanoati sohalarida klaster tizimidan samarali foydalanish, uni amaliyotga tatbiq etish, sanoat korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari xorijlik olimlarning ishlarida tadqiq etilgan, jumladan A.Marshall, M.Porter, S.Rozenfeld, M.Joffrea, P.Marijn, L.Klerkx, W.Poczta, J.Sredzinska, M.Chenczke L.Ngoc va R.Andrienko<sup>3</sup> singari dunyoning yetakchi olimlari bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

MDH olimlaridan E.V.Ivanova, E.V.Karpichev, R.V.Kostrigin, P.A.Muxsinova, O.V.Dmitrenko, V.V.Kryuchkova, D.Koshcheev, E.Tretiakova, I.Ablaev, D.V.Zavyalov, O.V.Saginova, N.B.Zavyalova, A.V.Minakov, S.B.Lapina, A.Chkoniya, I.A.Meshkov, N.A.Nikonova, L.G.Egorova va boshqalar<sup>4</sup> tomonidan mazkur masalalarda ilmiy tadqiqot ishlari o‘tkazilgan.

<sup>3</sup> Маршалл А. Принципы экономической науки. В 3-х томах. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1993 г. 594 стр.; Porter М. “The Competitive Advantage of Nations” New York: Free Press, 1990 г. 495 pp.; Rozenfeld S. “Bringing business clusters into the mainstream of economic development//European planning studies”-1997-No5-P-3-23.; Joffrea M., Marijn P., Klerkx L. “To cluster or not to cluster farmers? Influences on network interactions, risk perceptions, and adoption of aquaculture practices” *Agricultural Systems* 173 (2019) 151–160.;Poczta W., Sredzinska J., Chenczke M. “Economic Situation of Dairy Farms in Identified Clusters of European Union Countries”, *Agriculture* 2020, 10, 92; doi:10.3390/agriculture 10040092 [www.mdpi.com/journal/agriculture](http://www.mdpi.com/journal/agriculture), Received: 18 February 2020; Accepted: 23 March 2020; Published:27 March 2020., pp.-1,3,7,8,9.; Andrienko R. “The Role of Innovation Clusters in the Development of Innovative Environment”, *Advances in Social Science” Education and Humanities Research*, volume 527 Proceedings of the VIII International Scientific and Practical Conference 'Current problems of social and labour relations' (ISPC-CPSLR 2020). pp. 58-59.

<sup>4</sup> Иванова Е.В. Формирование и развитие агропродовольственных кластеров в условиях политики импортозамещения, дисс. на соиск. ученой степени д.э.н. по специальности 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами – АПК и сельское хозяйство). – Мичуринск, 2018. –45 с.; Карпичев Е.В. Механизмы управления инновационной кооперацией субъектов промышленных кластеров, дисс. на соиск. ученой степени к.э.н. по специальности 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством: экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами: промышленность. – Санкт-Петербург, 2019. -с.13,49.; Костригин Р.В. Методы оценки экономического развития и инструментарий выбора стратегии промышленных кластеров, дисс. на соиск. ученой степени к.э.н. по специальности 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством: Экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами (промышленность) – Нижний Новгород, 2020. – С.12-13.; Мухсинова П.А. Развитие легкой промышленности региона на основе кластерного подхода (на материалах Согдийской области Республики Таджикистан) дисс. на соиск. ученой степени к.э.н. по специальности 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством. (региональная экономика) – Душанбе,

Respublikamiz iqtisodchi olimlari Ch.Murodov, Sh.Hasanov, I.G‘aniyev, A.U.Burxonov, B.T.Salimov, M.S.Yusupov, B.N.Navro‘z-Zoda, T.X.Farmonov, R.Obidov, T.T.Jo‘rayev, M.E.Hamidov, I.S.Ochilov, B.K.Abdumuminov, Z.Xakimov, I.Xotamov va boshqalar<sup>5</sup> tomonidan klaster tizimini takomillashtirish, qayta ishlash sanoati korxonlarida klaster tizimidan foydalanishning afzalliklari, agrosanoat tizimida klasterlarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq tadqiqot ishlari sutni qayta ishlash korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish masalalari to‘liq yoritilmagan, sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinmagan hamda klaster tizimi asosida tashkil etilgan sutni qayta ishlash korxonalarining faoliyati doirasida ilmiy tadqiqot ishlari to‘liq bajarilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170928153-sonli «Korxonalarni innovatsion rivojlantirish sharoitida vertikal integratsiyadan samarali foydalanish yo‘llari» mavzusidagi (2018-2020-yy.) amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

---

2020. – с. 15.; Дмитренко О.В. Повышение эффективности развития молочно-продуктового подкомплекса на основе кластерного подхода (на примере Оренбургской области) Диссертация. – Саратов, 2020 й.; Крючкова В.В. Технология молока и молочных продуктов. Учебное пособие. – Персиановский, 018 йил.; Koshcheev D, Tretyakova E, Ngoc L. “Negative Effects of Industrial Clustering on Region Social and Economic Development: System and Agglomeration Approach” SHS Web of Conferences 93, 05003 (2021) NID 2020 <https://doi.org/10.1051/shsconf/20219305003>; Ablav I. “Innovation Clusters and Regional Development”, Research Article: 2018 Vol: 17 Issue: 3, Kazan Federal (Volga Region) University; Завьялов Д.В., Сагинова О.В., Завьялова Н.Б. Управление развитием агропромышленных кластеров. Российский экономический университет им. Г.В. Плеханова. – Москва, Россия 2018 йил.; Минаков А.В., Лапина С.Б. Развитие промышленных кластеров как необходимое условие обеспечения экономической безопасности России: Экономические науки, 2021 йил.; Чкония А., Мешков И. Состояние кластерного развития в государствах – участниках ЕАБР, Центр интеграционных исследований. 08/2019. – С.6-17.; Никонова Н.А. Повышение экономической эффективности производства и переработки молока в сельскохозяйственных организациях (на примере Ленинградской области), дисс. на соиск. ученой степени к.э.н. по специальности 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством: экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами организации сельского хозяйства (АПК и сельское хозяйство). - Санкт-Петербург-Пушкин, 2019.-с. 40-54.; Егорова Л.Г. Развитие методического обеспечения учета движения запасов на молокоперерабатывающих предприятиях, дисс. на соиск. ученой степени к.э.н. по специальности 08.00.12 – Бухгалтерский учет, статистика. – Оренбург, 2021. – 53 с.

<sup>5</sup> Мurodov Ч., Хасанов Ш., Ганиев И. Ўзбекистон кишлок хўжалигида қайта ишлашни ривожлантиришда агрокластерларни яратишдаги дастлабки қадамлар. //Ўзбекистон агросаноат мажмуасининг рақобатбардошлигини ошириш ва экспорт салоҳиятини юксалтириш. Республика илмий-амалий анжумани маъруза тезислари тўплами. – Т.: ТДИУ, 2014 й.; Бурханов А. Саноат корхоналари молиявий барқарорлигини баҳолаш усули. // Иқтисодий ва инновацион технологиялар. 6-сон, ноябрь-декабрь, 2018 йил. – С.3-4.; Салимов Б., Юсупов М. Кишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг рақобатбардошлиги ва экспорт салоҳиятини ошириш омиллари. // Иқтисодий ва инновацион технологиялар. 6-сон, ноябрь-декабрь, 2014 йил. – С. 4.; Наврўз-Зода Б.Н., Фармонов Т.Х. Кишлоқ хўжалигида кластер тизимини ривожлантириш: тажрибалар, натижалар ва истикболли йўналишлар. Республика илмий-амалий анжумани материаллар тўплами. – Бухоро: “Дурдона” нашриёти 2019 й.; Обидов Р. Кластер тизимда кишлок хўжалик маҳсулотларини сақлаш, қайта ишлаш ҳамда сотиш харажатлари ҳисобининг хусусиятлари. //Халқаро молия ва ҳисоб. 3-сон, июнь, 2018. – С. 2-7.; Жўраев Т.Т., Хамидов М.Э. Development of agro-industrial clusters in Uzbekistan and their role in agricultural development, International Finance and Accounting: Vol. 2019: Iss. 2, Article 12. -с.4-8.; Очилов И.С., Абдумунинов Б.К. Кластер тизимида инновацион самарадорлик масалалари. //Иқтисодий ва инновацион технологиялар. 2-сон, март-апрель, 2019. – С. 1-6.; Хакимов З. Саноат кластерлари самарадорлигини таъминловчи омиллар тизими. //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 1/2022 январь-февраль №00057 – С. 219-220; Хотамов И. Озиқ-овқат маҳсулотларини қайта ишлаш корхоналари иқтисодий самарадорлигини ошириш. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 2/2022 mart-aprel, № 00058, article DOI:10.55439/EIT/vol10\_iss2/a20, <http://iqtisodiyot.tsue.uz>. – С.182-183.

**Tadqiqotning maqsadi** sutni qayta ishlash korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

qayta ishlash sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

sut mahsulotlari sifati va yalpi ishlab chiqarishda korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish;

sutni qayta ishlash sanoati korxonalarida klaster tizimini rivojlantirish borasida xorij tajribalarini o'rganish va amaliyotga joriy etish;

sutni qayta ishlash korxonalarini samaradorligini SWOT-KPI tizimi asosida baholash;

qayta ishlash korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirishning strategik yo'nalishlari va samaradorligini integral baholash yondoshuvi asosida takomillashtirish;

sutni qayta ishlash korxonalarida mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi va asosiy fondlar ko'rsatkichlari samaradorligini aniqlash;

sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarishni klaster imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sutni qayta ishlash korxonalarini faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** sutni qayta ishlash korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish jarayonida vujudga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy tadqiqot ishidagi muammoni o'rganish uchun mantiqiy fikrlash, tizimli yondoshuv, iqtisodiy taqqoslash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, SWOT-KPI, ARIMA modeli hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sut mahsulotlari sifati va yalpi ishlab chiqarish jarayonida o'zaro aloqador korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishda sutni qayta ishlash xo'jaliklariga klaster tizimini joriy qilishning maqsadga muvofiqligi va integratsiyalashuviga ko'ra iqtisodiy samaradorlik kamida 5 % ga ortishi asoslab berilgan;

sutni qayta ishlash korxonalarini samaradorligini integratsiyalashgan SWOT-KPI tizimiga ko'ra baholashda faoliyat samaradorligini yaxshi (25-30 %), qoniqarli (15-25 %) va qoniqarsiz (1-15 %) chegaralarida baholash yondashuvi taklif etilgan;

samaradorlikni integral baholash yondashuvi klaster tizimi sharoitida sutni qayta ishlash korxonasining asosiy fondlar va unumdorlik ko'rsatkichlarining mutanosiblik darajasiga ko'ra takomillashtirilib, unga ko'ra samaradorlikning 5 foiz darajasida ortishi asoslangan;

sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarishni klaster imkoniyatlaridan samarali foydalanishga ko'ra 2022-2026-yillarda rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

sut mahsulotlari sifatini va yalpi ishlab chiqarishda korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, sutni qayta ishlash xo'jaliklariga klaster tizimini joriy qilish

va integratsiyalashuviga ko'ra iqtisodiy samaradorligini kengaytirish, KPI va SWOT-KPI baholash mezonlari asosida korxonalar faoliyatini takomillashtirish, korxonalarni iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar yoritib berilgan;

sutni qayta ishlash korxonalarida SWOT-KPI baholash tizimini hisoblash bo'yicha samardorlik natijalari, klaster tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari, klasterlarni tashkil etishning tashkiliy jihatlarini asoslab berilgan;

qayta ishlash sanoati korxonalarida klaster tizimini rivojlantirishning zamonaviy strategik yo'nalishlari, klasterlarni takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari taklif etilgan;

sutni qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, asosiy fondlar ko'rsatkichlarini integral baholash, sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarishni klaster imkoniyatlaridan samarali foydalanishga ko'ra rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Ishtixon tuman kengashi hamda «Baxt imkon rivoj chorvasi» fermer xo'jaligining rasmiy ma'lumotlari, shuningdek xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalardan sutni qayta ishlash korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish yo'nalishida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sutni qayta ishlash korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirishga doir dasturlar va strategik rejalarni ishlab chiqishda, qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimini takomillashtirishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda, chorvachilik va sut tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar va maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sutni qayta ishlash korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natija va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

sut mahsulotlari sifati va yalpi ishlab chiqarish jarayonida o'zaro aloqador korxonalar faoliyat samaradorligini oshirishda sutni qayta ishlash xo'jaliklariga klaster tizimini joriy qilishning maqsadga muvofiqligi va integratsiyalashuviga ko'ra iqtisodiy samardorlik kamida 5 % ga ortishi bo'yicha taklif O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2022-yil 25-oktyabrdagi 25-93/10-22-son, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Ishtixon tuman kengashining 2022-yil 26-sentyabrdagi 5-son, «Baxt imkon rivoj chorvasi» fermer xo'jaligining 2022-yil 5-apreldagi 10-son ma'lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi

natijasida uyushmaga a'zo bo'lgan korxonalarining iqtisodiy samaradorligi 5 % o'sishiga, Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari va korxonalarining iqtisodiy samaradorligi 2022-yilda avvalgi yilga nisbatan 15 % o'sishiga hamda «Baxt imkon rivoj chorvasi» fermer xo'jaligida ishlab chiqarish o'sish sur'atlari ta'minlanishiga xizmat qilgan;

sutni qayta ishlash korxonalari samardorligini integratsiyalashgan SWOT-KPI tizimiga ko'ra faoliyat samaradorligini yaxshi (25-30 %), qoniqarli (15-25 %) va qoniqarsiz (1-15 %) chegaralarida baholash yondashuvi O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi va O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Ishtixon tuman kengashi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2022-yil 25-oktyabrdagi 25-93/10-22-son, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Ishtixon tuman kengashining 2022-yil 26-sentyabrdagi 5-son ma'lumotnomalari). Ushbu taklifni amaliyotga qo'llash natijasida tuman sutni qayta ishlash korxonalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlarining aniqlik darajasini oshirish hisobiga tadbirlar natijadorligiga erishish imkoniyati kengaytirilgan;

klaster tizimi sharoitida har bir sutni qayta ishlash korxonasining asosiy fondlar va unumdorlik ko'rsatkichlarining mutanosiblik darajasi taklif qilingan holda samaradorlikni integral baholash yondashuvi taklif qilinib, unga ko'ra samaradorlikning 5 foiz darajasida ortishi bo'yicha taklifdan O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi tomonidan oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2022-yil 25-oktyabrdagi 25-93/10-22-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif uyushmaga a'zo korxonalarining unumdorligiga ko'ra iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda korxonalar daromadlarining o'sish imkonini yaratgan;

sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarishni klaster imkoniyatlaridan samarali foydalanishga ko'ra 2022-2026-yillarda rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi tomonidan oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2022-yil 25-oktyabrdagi 25-93/10-22-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish korxonalar imkoniyatlarining prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra qayta baholash hamda ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha imkoniyatlarini aniqlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 9 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, milliy jurnallarda 6 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 139 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi va tadqiqotda qo'llanilgan usullar, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari**» deb nomlangan, unda klaster tizimini rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqotlarning nazariy asoslari, klaster tizimidan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili, klasterlarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar samarasi, sutni qayta ishlash sanoati korxonalarida klaster tizimidan foydalanishning xorijiy davlatlar tajribasi ko'rib chiqilgan hamda sut mahsulotlari sifati va yalpi ishlab chiqarish jarayonida o'zaro aloqador korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishda sutni qayta ishlash xo'jaliklariga klaster tizimini joriy qilishning maqsadga muvofiqligi va integratsiyalashuviga ko'ra iqtisodiy samaradorligi ortishi va iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillari takomillashtirilgan.


Klaster tizimini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish borasida bugungi kunda ko'plab dunyoning yetakchi iqtisodchi olimlari tomonidan turlicha yondashuv va ta'riflar berilgan bo'lib, olimlar qishloq xo'jaligi, agrosanoat, yengil sanoat va qayta ishlash sohalarida klaster tizimini rivojlantirish masalalariga qaratilgan tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan biroq, sutni qayta ishlash korxonalarida klaster tizimini rivojlantirish borasida yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Sutni qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish maqsadida sutni qayta ishlash korxonalarida sut mahsulotlari sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mexanizimi ishlab chiqilgan va 1-rasmda ko'rsatib o'tilgan.

Iqtisodchi olimlar tomonidan qishloq xo'jaligi va agrosanoat tizimlarida klasterlarni samarali jihatlari keng tadqiq etilgan ammo, sut mahsulotlari sifati va yalpi ishlab chiqarish jarayonida o'zaro aloqador korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, sutni qayta ishlash xo'jaliklariga klaster tizimini joriy qilishning maqsadga muvofiqligi va integratsiyalashuviga ko'ra iqtisodiy samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilmagan. Tatbiq etilayotgan ushbu mexanizmning imkoniyatlari keng bo'lib, sutni qayta ishlash korxonalarida samarali qo'llash orqali klaster tizimini rivojlantirish va korxonalarining iqtisodiy samaradorligini kamida 5 foizga o'sishini ta'minlaydi.

Hozirgi kundagi an'anaviy klaster tizimda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish maqsadga muvofiq. Jumladan, sutni qayta ishlash korxonalarini klasterlash uchun davlat ko'magida imtiyozli kreditlar ajratish, sutchilik yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash, mahsulot yetishtiruvchilarni birlashtiradigan sutchilik sanoati uyushmasini tashkil etish, sutchilik sanoati uyushmasi qoshida sutchilik faoliyatini nazorat qilish markazini joriy etish, sutchilik logistika markazini yo'lga qo'yish, sut bozorlarini rivojlantirish, lizing asosida mikrokorxonalar tashkil etish,

yirik sutni qayta ishlovchi korxonalar negizida kichik korxonalarni tashkil etish kabi dolzarb masalalar muammoligicha qolmoqda, mazkur muammolarga samarali yechim sifatida ishlab chiqilgan yangi mexanizmni amaliyotga qo'llash yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni samarali bartaraf etishga hamda sut mahsulotlari sifati va yalpi ishlab chiqarish jarayonida o'zaro aloqador korxonalar faoliyati samaradorligi kamida 5 foiz ortishiga xizmat qiladi.



### 1-rasm Sutni qayta ishlash korxonalarida sut mahsulotlari sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mexanizimi<sup>6</sup>

1-rasmda ko'rsatib o'tilgan mexanizmning an'anaviy klaster tizimdan farqi shundaki, klaster tizimini rivojlantirishning tashkiliy funksiyalari aniq ko'rsatib o'tilganli, klaster tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy yo'nalishlar to'g'ri birlashtirilganligi, innovatsion imkoniyatlarga ega yangi tizimlar ko'rsatilganligi, sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini faoliyatining o'zaro integratsiyalashuvi hamda ularning iqtisodiy samaradorligi ortishi yagona mexanizm sifatida integratsiyalashganligi asoslab berilgan. Mazkur mexanizmni qayta ishlash sanoati korxonalariga tatbiq etish natijasida quyidagi bir qator natijalarga erishildi. Jumladan, mexanizmni O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi tarkibidagi korxonalar faoliyatiga tatbiq etish orqali korxonalarining iqtisodiy samaradorligining 5 % o'sishiga erishilgan bo'lib, bunda asosan uyushmaga a'zo sut mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni faoliyatiga tatbiq etildi. Natijada esa korxonalar faoliyatidagi

<sup>6</sup> Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

mexanizmda ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlardagi kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyati yuzaga keldi. Korxonalar o'rtasida yangi mexanizmda ko'rsatib o'tilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish va amaliyotda qo'llash bo'yicha aniq hamkorlik dasturi ishlab chiqilishiga erishildi.


Qolaversa, ushbu mexanizmni kengroq joriy etish maqsadida Samarqand viloyatidagi klaster tizimi asosida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari va korxonalarining faoliyatiga ham samarali tatbiq etilishi natijasida ularning iqtisodiy samaradorligi kamida 15 % o'sishiga erishildi. Natijada esa, mexanizmning innovatsion-iqtisodiy jihatlaridan samarali foydalanish imkoniyatga yuzaga keldi. Bundan tashqari, Andijon viloyatidagi klaster tizimi asosida faoliyat yurituvchi fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradorligi oshirishga erishildi. Natijada esa, fermer xo'jaligida boshqa turdagi korxonalar bilan o'zaro klaster tizimi asosida hamkorlik qilish imkoniyatlari oshdi.

Bu ishlab chiqilgan mexanizm ilmiy asoslarga ega bo'lib, jumladan boshqa o'rganib chiqilgan tadqiqot ishlarida bunday mexanizmdan foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilmaganligi, mexanizmni bir qator xalqaro va respublika miqyosidagi nufuzli nashrlarda muhokamadan o'tkazilganligi, yo'nalishlari aniq maqsadlarda bog'langanligi hamda amaliyotga keng tatbiq etilganligi uning ilmiy asoslarga ega ekanligini ko'rsatib beradi. 1-rasmdagi iqtisodiy jarayonlarning o'zaro integratsiyalashuvi klaster tizimi rivojlanishi, korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, mahsulotlar sifati va ishlab chiqarishini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan samarali yechim hisoblanadi. Ularni yagona mexanizm sifatida birlashtirish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini kamida 5 % o'sishini ta'minlaydi.

Mexanizmda 8 ta iqtisodiy yo'nalish ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ushbu yo'nalishlarni iqtisodiy samaradorligini aniqlashda bir qator korxonalariga tatbiq etilgan amaliy natijalar orqali erishildi. Jumladan, sutni qayta ishlash korxonalariga tatbiq etilganda ularning logistika xizmat ko'rsatish tizimida bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Natijada esa ushbu mexanizmdan samarali foydalanish logistika xizmatlari sifatini oshirish va korxonalar o'rtasida yangi integratsiyani tashkil etish imkoniyatlarini yaratishi orqali korxonalar daromadi 5 % ga o'sishiga erishildi.

Mazkur mexanizmdan samarali foydalanish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va ularni yagona tizim sifatida birlashtirishga xizmat qiladi. O'rganib chiqilgan xorijiy tajribalardan ko'rinadiki, sutni qayta ishlash sanoati korxonalarida klaster tizimidan samarali foydalanishda quyidagi davlatlarning tajribasi muhim sanaladi. Jumladan, Hindiston, Yevropa Ittifoqi, AQSH, Pokiston, Braziliya, Germaniya, Xitoy, Rossiya, Fransiya, Yangi Zelandiya, Turkiya, Avstraliya, Kanada, Belorussiya, Finlyandiya singari rivojlangan davlatlar sutni ishlab chiqarish va qayta ishlash borasida dunyodagi eng yetakchi davlatlar hisoblanadi. O'zbekistondagi sutni qayta ishlash korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishi doirasida quyidagi 2-rasmda ko'rsatib o'tilgan sutni qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillari ishlab chiqilgan bo'lib, an'anaviy tizimda sutni qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniq ko'rsatib o'tilmagan, ularning

iqtisodiy tahlili to‘liq o‘rganilmagan hamda tashqi, ichki va fermer xo‘jaliklaridagi iqtisodiy samaradorlikka ta‘sir etuvchi omillari guruhlashtirilgan holda tizimlashtirilmagan.



**2-rasm. Sutni qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar<sup>7</sup>**

2-rasmda ko‘rsatib o‘tilgan omillar korxonalarining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘lib, sutni qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar 3 ta katta guruhga bo‘lingan, ular tashqi, ichki va fermer xo‘jaliklaridagi omillarga ajratilgan. Bunda, ko‘rsatib o‘tilgan omillar korxonalarining

<sup>7</sup> Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

iqtisodiy samaradorligiga qaysi jihatdan ta'sir etayotganligini aniq bilish imkoniyati mavjud bo'lib, aynan ushbu jihati bilan an'anaviy tizimdan afzalligi yuqori ekanligi ko'rsatib berilgan. Muallif tadqiqoti doirasida ishlab chiqilgan omillarning iqtisodiy samaradorligi shundaki, sutni qayta ishlash korxonalarida mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash, omillar o'rtasidagi bog'liqlikni nazorat qilish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish hamda korxonalar faoliyatini iqtisodiy samaradorligini baholash imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, qayta ishlash sanoati korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirishning afzalliklari, sutni qayta ishlash xo'jaliklariga klaster tizimini joriy qilishning maqsadga muvofiqligi va integratsiyalashuviga ko'ra iqtisodiy samaradorligi ortishi va iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning asoslanganligi hamda ularning amaliyotga keng joriy etilgani korxonalarining iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Sutni qayta ishlash sanoati korxonalarining iqtisodiy-ishlab chiqarish faoliyatining kompleks tahlili**» deb nomlangan bo'lib, unda sut mahsulotlarini sotish narxlari, narx siyosatini pasaytirish va xarajatlarni kamaytirish, sutni qayta ishlash korxonalarining samaradorligini integratsiyalashgan SWOT-KPI tizimiga ko'ra baholash hamda sutni qayta ishlash korxonalarida mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi va asosiy fondlar ko'rsatkichlarining samaradorlik tahlili tadqiq qilingan.

Tadqiqot ishida sut bozorlaridagi narxlarni o'zgarish, sutni qayta ishlash korxonalaridagi iqtisodiy samaradorlikni baholash, mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, asosiy fondlarning ko'rsatkichlari o'rganib chiqildi hamda sutni qayta ishlash korxonalaridagi bir qator muammolar aniqlandi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda sut mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni aniqlash va uni baholashda keng qo'llab kelinayotgan SWOT tahlili va KPI (Key Performance Indicators) baholash tizimi mavjud bo'lib, sutni qayta ishlash korxonalarida mazkur baholash tizimi samarali tatbiq etilmagan.

O'zbekistondagi sutni qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida sutni qayta ishlash korxonalarini samaradorligini integratsiyalashgan SWOT-KPI tizimiga ko'ra baholashda faoliyat samaradorligini yaxshi (25-30 %), qoniqarli (15-25 %) va qoniqarsiz (1-15 %) chegaralarida baholash yondashuvi ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagi 1-jadvalda qayta ishlash sanoati korxonalarini, sutni qayta ishlash korxonalarini va fermer xo'jaliklariga erishilgan natijalari ko'rsatib o'tilgan.

1-jadvalda, SWOT-KPI baholash tizimi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bunda 3 xil baholash mezonini asosida korxonalarining umumiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshi (25-30 foiz), qoniqarli (15-25 foiz) va qoniqarsiz (1-15 foiz) baholash chegaralari ko'rsatib o'tilgan.

Qolaversa, jadvalda 5 ta samaradorlik ko'rsatkichi bo'lib, ularni baholashda quyidagi 100 ballik baholash mezonidan foydalanilgan.

- korxonaning 1-samaradorlik ko'rsatkichlari (ASK) jami 30 ball baholash mezonida bo'lib, ko'rsatkichlar (24-30) ball chegarasida bo'lsa, yaxshi, (15-23) ball chegarasida bo'lsa, qoniqarli, (1-14) ball chegarasida bo'lsa, qoniqarsiz bo'ladi;

- korxonaning 2-samaradorlik ko'rsatkichi (KT) jami 20 ball baholash mezonida bo'lib, kuchli tomonlari (16-20) ball chegarasida bo'lsa, yuqori, (9-15) ball chegarasida bo'lsa, o'rta, (1-8) ball chegarasida bo'lsa, past darajada bo'ladi;

- korxonaning 3-samaradorlik ko'rsatkichi (KT) jami 15 ball baholash mezonida bo'lib, kuchsiz tomonlari (11-15) ball chegarasida bo'lsa, yuqori, (6-10) ball chegarasida bo'lsa, o'rta, (1-5) ball chegarasida bo'lsa, past darajalarni tashkil etadi;

- korxonaning 4-samaradorlik ko'rsatkichi (I) jami 25 ball baholash mezonida bo'lib, korxonaning imkoniyatlari (18-25) ball chegarasida bo'lsa yuqori, (10-17) ball chegarasida bo'lsa, o'rta, (1-9) ball chegarasida bo'lsa, past darajalarni tashkil etadi;

- korxonaning 5-samaradorlik ko'rsatkichi (XX) jami 10 ball baholash mezonida bo'lib, korxonaning xavf-xatarlari (8-10) ball chegarasida bo'lsa, yuqori, (5-7) ball chegarasida bo'lsa, o'rta, (1-4) ball chegarasida bo'lsa, past daraja sifatida baholanadi.

### 1-jadval

#### SWOT-KPI baholash tizimini amaliyotga qo'llanilgan natijalari tahlili<sup>8</sup>

№	Ko'rsatkichlar	Qayta ishlash sanoati korxonalari (Oziq-ovqat sanoati uyushmasi) misolida	Sutni qayta ishlash korxonlari («Melek Best Milk Agro» korxonasi) misolida	Fermer xo'jaliklari (Baxt fermer xo'jaligi) misolida	Baholash mezonini 3 xil chegara oralig'ida baholangan
1.	Korxonaning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash	24 ball yuqori daraja	26 ball yuqori daraja	28 ball yuqori daraja	(25-30 %) yaxshi
2.	Korxonaning kuchli tomonlarini baholash	18 ball yuqori daraja	15 ball o'rta daraja	17 ball yuqori daraja	(25-30 %) yaxshi, (15-25 %) qoniqarli
3.	Korxonaning kuchsiz tomonlarini baholash	10 ball o'rta daraja	8 ball o'rta daraja	5 ball past darajada	(15-25 %) qoniqarli, (25-30 %) yaxshi
4.	Korxonaning imkoniyatlarini baholash	17 ball o'rta daraja	20 ball yuqori daraja	24 ball yuqori daraja	(15-25 %) qoniqarli, (25-30 %) yaxshi
5.	Korxonaning xavf-xatarlarini baholash	7 ball o'rta daraja	8 ball yuqori daraja	6 ball o'rta daraja	(15-25 %) qoniqarli, (1-15 %) qoniqarsiz

Korxonaning 5 ta samaradorlik ko'rsatkichi jami 100 ballik mezonda baholangan bo'lib, uning umumiy hisobi quyidagi formula orqali ifodalangan.

$$ASK + KT + KT + I + XX = 100,$$

bunda: ASK – 30 ball, KT – 20 ball, KT – 15 ball, I – 25 ball va XX – 10 ballni tashkil etadi.

Bundan ko'rinadiki, SWOT-KPI baholash mezonida 3 ta chegaraviy baholash mezonlari yordamida korxonaning umumiy iqtisodiy samaradorligi aniqlansa, 5 ta

<sup>8</sup> Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

samaradorlik ko'rsatkichlari orqali korxonalarining joriy davrdagi ko'rsatkichlar holati aniqlanadi. Natijada esa umumiy SWOT-KPI baholash mezonini shakllanadi. Jadvalda baholash jarayoniga tegishli barcha omillar o'rganilgan va tahlil qilib chiqilgan. Dastlab, oziq-ovqat sanoati uyushmasiga a'zo qayta ishlash sanoati korxonalariga tatbiq etilganda ularning joriy davr uchun umumiy iqtisodiy samardorligi quyidagicha baholangan: chegaraviy baholari bo'yicha 1 va 2 samardorlik ko'rsatkichlari (25-30 foiz) yaxshi, 3, 4 va 5 samardorlik ko'rsatkichlari (15-25 foiz) qoniqarli natijani tashkil etgan hamda 5 ta samardorlik ko'rsatkichlari quyidagi ballda baholangan: ASK – 24 ball, KT – 18 ball, KT – 10 ball, I – 17 ball va XX – 7 ballni tashkil etgan.

Sutni qayta ishlash korxonalaridan «Melek Best Milk Agro» korxonasida esa natijalar quyidagicha: chegaraviy baholari bo'yicha 1-samardorlik ko'rsatkichlari (25-30 %) yaxshi, 2 va 3 samardorlik ko'rsatkichlari (15-25 %) qoniqarli, 4-samardorlik ko'rsatkichlari (25-30 %) yaxshi va 5-samardorlik ko'rsatkichlari (1-15 foiz) qoniqarsiz natijani tashkil etgan hamda ASK – 26 ball, KT – 15 ball, KT – 8 ball, I – 20 ball va XX – 8 ballni tashkil etgan.

Fermer xo'jaliklaridan «Baxt imkon rivoj chorvasi» fermer xo'jaligida quyidagi natijalar qayd etildi: chegaraviy baholari bo'yicha 1, 2, 3 va 4 samardorlik ko'rsatkichlari (25-30 %) yaxshi va 5 samardorlik ko'rsatkichlari (15-25 %) qoniqarli natijani tashkil etgan hamda 5 ta samardorlik ko'rsatkichlari quyidagi ballda baholangan: ASK – 28 ball, KT – 17 ball, KT – 5 ball, I – 24 ball va XX – 6 ballni tashkil etgan. Bunda asosan korxonalarining joriy davrdagi ko'rsatkichlari to'liq o'rganilgan va baholab chiqilgan. Natijada esa, korxonalariga SWOT-KPI baholash mezonini qo'llash amaliyoti yuzaga keldi va SWOT-KPI baholash mezonini orqali korxonalarini umumiy iqtisodiy natijalari va samardorligini baholash imkoniyati joriy etildi.

Sutni qayta ishlash korxonalaridagi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi va asosiy fondlar ko'rsatkichlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish maqsadida tadqiqot ishi doirasida quyidagi sutni qayta ishlash korxonalarini va fermer xo'jaliklari faoliyati o'rganildi. Jumladan, «Melek Best Milk Agro», Pure Milky Works, «The Best Bio Milks» sutni qayta ishlash korxonalarini va «Baxt imkon rivoj chorvasi» fermer xo'jaligining faoliyati tahlil qilindi va quyidagi 2-jadval ma'lumotlari shakllantirildi.

2-jadvaldagi mavjud holatni baholash maqsadida 4 ta klaster tizimi asosida faoliyat yurituvchi korxonalar va fermer xo'jaliklarining 2022-yildagi faoliyatining qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlar tanlab olindi.

Jumladan:

- qishloq xo'jaligiga oid ko'rsatkichlar;
- umumishlab chiqarish va qayta ishlash ko'rsatkichlari;
- ishchi kuchi ko'rsatkichlarini tashkil etadi.

Jadvaldan ko'rinadiki, «Melek Best Milk Agro», Pure Milky Works, «The Best Bio Milks» sutni qayta ishlash korxonalarini va «Baxt imkon rivoj chorvasi» fermer xo'jaligi faoliyati tanlab olingan bo'lib, ularni faoliyati 3 ta ko'rsatkich asosida tahlil qilindi.

**2022-yilda sutni qayta ishlash korxonlari va fermer xo‘jaliklari faoliyati ko‘rsatkichlari<sup>9</sup>**

Ko‘rsatkichlar	O‘b	«Melek Best Milk Agro» korxonasi	Pure Milky Works korxonasi	«The Best Bio Milks»korxonasi	«Baxt imkon rivoj chorvasi» fermer xo‘jaligi
<b>Qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari:</b>					
Klasterni tashkil etish va boshqarish shakli	-	Yetishtirishdan boshlab yakuniy mahsulotgacha yaxlit boshqaruv shakli			
Umumiy maydoni	ga	300	2500	30	2000
Sut ishlab chiqarish miqdori	t.	9 000	98 000	80	72 000
Hosildorlik	s/ga	30	39,2	26,6	36
Qishloq xo‘jaligi mashinalari soni	dona	24	45	8	32
Chorva mollar soni (sog‘in sigirlar)	bosh	1000	3500	200	2400
<b>Ishlab chiqarish va qayta ishlash ko‘rsatkichlari:</b>					
Sutni qayta ishlovchi sexlar soni	dona	4	12	2	6
Qayta ishlangan sut hajmi	t.	360	8 860	45	5430
Ishlab chiqarilgan pishloq hajmi	t.	20	370	5	42
Ishlab chiqariladigan sut mahsulotlarining turlari	-	40	50	6	25
Yillik ishlab chiqarish quvvati	-	9 000 t. sut, 360 t. qayta ishlangan sut, 20 t. pishloq	98 000 t. sut, 8 860 t. qayta ishlangan sut, 370 t. pishloq	80 t. sut, 45 t. qayta ishlangan sut, 5 t. pishloq	72 000 t. sut, 5430 t. qayta ishlangan sut, 42 t. pishloq
Asosiy vositalar qiymati	so‘m	42 milliard	97 milliard	12 milliard	78 milliard
<b>Ishchi kuchi ko‘rsatkichlari:</b>					
Mehnat resurslarining umumiy soni	kishi	75	250	7	45
Rahbarlar	kishi	10	25	2	5
Mutaxassislar	kishi	30	150	3	15
Ishchilar	kishi	35	75	2	25


Bunda asosan samaradorlikni integral baholash yondashuvi asosida klaster tizimi sharoitida sutni qayta ishlash korxonalarining asosiy fondlari va unumdorlik ko‘rsatkichlarining mutanosiblik darajasiga ko‘ra iqtisodiy samaradorligi baholandi

<sup>9</sup> Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

va korxonalar o'rtasidagi qiyosiy tahlili ko'rsatib berildi. Qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari bo'yicha Pure Milky Works korxonasi va «Baxt imkon rivoj chorvasi» fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lib, qolgan korxonalarda esa ushbu ko'rsatkichlarning iqtisodiy samaradorligi yuqori darajada emasligi qayd etilgan. Umumishlab chiqarish va qayta ishlash ko'rsatkichlari bo'yicha ham 2 ta korxonaning imkoniyatlari yuqori bo'lib, qolgan «Melek Best Milk Agro» va «The Best Bio Milks» korxonalarining imkoniyatlari yuqori darajada emasligi ko'rsatib o'tilgan. Ishchi kuchi ko'rsatkichlari bo'yicha esa «Melek Best Milk Agro» va Pure Milky Works korxonalarida ko'rsatkichlar yuqori, qolgan «The Best Bio Milks» korxonasi va «Baxt imkon rivoj chorvasi» fermer xo'jaligida esa pastroq ko'rsatkichlarni tashkil etgan.

